XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Mingyasharov Murodbek Abdulla o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti 2-kurs talabasi

Raxmanova Yulduz Sharafitdinovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi o‘qituvchisi i.f.b.f.d (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.24156411

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida moliyaviy boshqaruvning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish, investitsion muhitni yaxshilash hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda moliyaviy boshqaruvning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, investitsion risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish va investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud imkoniyatlari hamda moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so`zlar: xorijiy investitsiyalar, moliyaviy boshqaruv, investitsion muhit, moliyaviy barqarorlik, investitsion risk, kapital oqimi, investitsiya loyihalari, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy resurslar.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение финансового управления в процессе привлечения иностранных инвестиций. Анализируются основные направления финансового управления в привлечении иностранных инвестиций в экономику страны, улучшении инвестиционного климата и эффективном использовании финансовых ресурсов. Особое внимание уделяется также вопросам снижения инвестиционных рисков, обеспечения финансовой стабильности, создания благоприятных условий для инвесторов и повышения эффективности инвестиционных проектов. В статье разработаны предложения и рекомендации по существующим возможностям привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана и совершенствованию механизмов финансового управления.
Ключевые слова: иностранные инвестиции, финансовое управление, инвестиционный климат, финансовая стабильность, инвестиционный риск, движение капитала, инвестиционные проекты, экономическое развитие, финансовые ресурсы.

Abstract. This article discusses the role and importance of financial management in the process of attracting foreign investment. The main areas of financial management in attracting foreign investment to the country's economy, improving the investment climate and effective use of financial resources are analyzed. Special attention is also paid to the issues of reducing investment risks, ensuring financial stability, creating favorable conditions for investors and increasing the efficiency of investment projects. The article develops proposals and

recommendations on the existing opportunities for attracting foreign investment in the economy of Uzbekistan and improving financial management mechanisms.

Keywords: foreign investment, financial management, investment climate, financial stability, investment risk, capital flow, investment projects, economic development, financial resources.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro kapital harakatining kengayishi hamda davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatning kuchayishi xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati nafaqat mavjud tabiiy va mehnat resurslari, balki xalqaro investitsiya oqimlarini jalb qilish, ulardan samarali foydalanish hamda moliyaviy resurslarni strategik maqsadlar asosida boshqarish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi oddiy kapital oqimini ta’minlash doirasidan chiqib, iqtisodiy modernizatsiya, innovatsion rivojlanish va milliy raqobatbardoshlikni oshirishning strategik yo‘nalishiga aylanmoqda. Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga yangi moliyaviy resurslarni olib kirish bilan bir qatorda, ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi, xalqaro standartlar va yangi bozor imkoniyatlarining kirib kelishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda infratuzilmani rivojlantirishda xorijiy kapitalning ahamiyati beqiyosdir. Biroq investitsiyalar hajmining ortishi o‘z-o‘zidan iqtisodiy samaradorlikni kafolatlamaydi. Buning uchun investitsion mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlash, ulardan foydalanish ustidan samarali nazorat o‘rnatish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy risklarni oldindan baholash talab etiladi.

Aynan shu jarayonda moliyaviy boshqaruv alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy boshqaruv investitsiya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi, moliyaviy qarorlarning samaradorligini ta’minlovchi hamda iqtisodiy faoliyatning barqarorligini mustahkamlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Xorijiy investorlar uchun mamlakatdagi moliyaviy shaffoflik, soliq siyosatining barqarorligi, valyuta munosabatlarining tartibga solinganligi, mulk huquqining himoyalanganligi va investitsiya faoliyatiga oid qonunchilikning izchil amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Demak, samarali moliyaviy boshqaruv nafaqat mavjud investitsiyalarni oqilona boshqarish, balki yangi investorlar ishonchini shakllantirishning ham asosiy shartlaridan biridir. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish ustuvor iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xorijiy kapital uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik, valyuta kurslarining o‘zgaruvchanligi, inflyatsion bosim va geosiyosiy xatarlar investitsiya faoliyatida puxta moliyaviy rejalashtirish hamda risklarni samarali boshqarish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha erishiladigan natijalar ko‘p jihatdan mamlakatda shakllangan moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining samaradorligiga bog‘liq. Investitsiya mablag‘larining maqsadli yo‘naltirilishi, moliyaviy resurslardan foydalanish natijadorligining baholanishi, investorlar manfaatlarining himoya qilinishi va investitsion risklarning minimallashtirilishi iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharxi

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish masalalari iqtisodiy fanlarning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan investitsion faoliyatning nazariy asoslari, moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlari, investitsion muhitning jozibadorligi hamda kapital oqimlarining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri yuzasidan turli ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olim D.G‘. G‘ozibekov o‘zining «Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari» nomli ilmiy asarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning iqtisodiy asoslari, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Olimning ilmiy qarashlaridan kelib chiqib, investitsiya jarayonining muvaffaqiyati moliyaviy manbalarni to‘g‘ri shakllantirish va ularni iqtisodiy jihatdan asoslangan loyihalarga yo‘naltirish bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlash mumkin[1]. Odil G‘aybullayevning «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish» nomli ilmiy maqolasida hududlarning investitsion salohiyatini shakllantirish va uni samarali boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Olim investitsion salohiyatni oshirishda hududiy imkoniyatlardan oqilona foydalanish, mavjud iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish va investitsion faoliyatni tizimli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etishini yoritadi[2]. Jon Danning tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro ishlab chiqarish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Olim o‘zining eklektik paradigmasida (OLI - Ownership, Location,Internalization) xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishda uchta asosiy omil — mulkiy ustunliklar, joylashuv ustunliklari va ichki nazorat ustunliklari muhimligini asoslab bergan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, investorning xorijiy mamlakatga kapital kiritish qarori nafaqat moliyaviy daromad olish imkoniyatiga, balki mamlakatning iqtisodiy muhiti, mavjud infratuzilmasi va investitsiya faoliyatini tashkil etish sharoitlariga ham bog‘liq. Mazkur yondashuv xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy boshqaruv bilan bir qatorda institutsional va iqtisodiy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.[3]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy boshqaruvning ahamiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini aniqlash hamda mavjud boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli tahlil va ilmiy abstraksiyalash metodlari yordamida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida moliyaviy boshqaruvning iqtisodiy mohiyati, asosiy funksiyalari va tarkibiy elementlari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq xorijiy kapitalning iqtisodiyotga kirib kelishi uning samarali boshqarilishi bilan uyg‘unlashgandagina kutilgan iqtisodiy natijalarni beradi. Shu sababli xorijiy investitsiyalarni tahlil qilishda faqat ularning umumiy hajmiga emas, balki investitsion mablag‘larning tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi, moliyalashtirish manbalari, loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy risklarni boshqarish holatiga ham e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda investitsiya faoliyatining kengayishi iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Xususan, sanoat, energetika, qurilish, transport, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlarda xorijiy kapital ishtirokidagi loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunday loyihalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi ish

[1] G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: Moliya, 2003. – 279 b
[2] G‘aybullayev O. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish .Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – 1-jild, 9-son.
[3] Dunning J.H. The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions // Journal of International Business Studies. – 1988.

o‘rinlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida moliyaviy boshqaruvning ahamiyati, avvalo, investitsiya mablag‘larini iqtisodiy jihatdan asoslangan yo‘nalishlarga taqsimlashda namoyon bo‘ladi. Masalan, energetika sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarni boshqarishda loyiha qiymati, kutilayotgan daromad, xarajatlarning qoplanish muddati va valyuta risklarini hisobga olish zarur. Sanoat loyihalarida esa ishlab chiqarish tannarxi, mahsulotga bo‘lgan talab, eksport imkoniyatlari va investitsiya rentabelligi muhim mezonlar hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini baholashda, avvalo, ularning yillar davomida o‘zgarish tendensiyasini o‘rganish muhim hisoblanadi. Chunki investitsiyalar hajmining o‘sishi mamlakatning xalqaro kapital uchun jozibadorligi, iqtisodiy islohotlar natijadorligi va investitsion imkoniyatlar kengayib borayotganini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 201,7 trln so‘mni, 2024-yilda 351,8 trln so‘mni, 2025-yilda esa 433,9 trln so‘mni tashkil etgan

Yillar	Investitsiyalar hajmi	O‘sish sur’ati
2021	101.4	-
2022	113.9	12.3%
2023	201.7	77.1%
2024	351.8	74.4%
2025	433.9	23.3%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2023–2025-yillar davomida xorijiy investitsiyalar hajmida izchil o‘sish kuzatilgan. Xususan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan investitsiyalar hajmi qariyb 74,4 foizga oshgan. 2025-yilda ham o‘sish davom etib, ko‘rsatkich 433,9 trln so‘mga yetgan. Biroq o‘sish sur’atining 2024-yildagi 74,4 foizdan 2025-yilda 23,3 foizga pasaygani ham e'tiborga loyiq. Bu holat investitsiyalar hajmi kamayganini emas, balki uning o‘sish tezligi sekinlashganini anglatadi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy boshqaruvning ahamiyatini chuqurroq anglash uchun investitsiyalarning qaysi moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilayotganini o‘rganish lozim. Chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, xorijiy kreditlar va boshqa moliyaviy manbalar o‘zining iqtisodiy mazmuni, qaytarish majburiyati va moliyaviy risklari bilan bir-biridan farq qiladi.

Moliyalashtirish manbalari	**Ulushi**
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	66.5%
Korxonalar mablag‘lari	15.9%
Aholi mablag‘lari	5.9%
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	5.2%
Respublika budjeti	4.2%
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	2%
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	0.3%

Xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi ularni boshqarish tizimiga qo‘yiladigan talablarni ham kuchaytiradi. Ayniqsa, investitsiya mablag‘laridan foydalanishda moliyaviy rejalashtirish, xarajatlarni nazorat qilish, risklarni baholash va kutilayotgan daromadni oldindan hisoblash muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida moliyaviy boshqaruv bir nechta muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi navbatda, moliyaviy rejalashtirish orqali investitsiya mablag‘laridan foydalanish oldindan belgilab olinadi. Bu esa mavjud moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish imkonini beradi.Ikkinchidan, investitsion risklarni boshqarish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda valyuta kursining o‘zgarishi, foiz stavkalari va bozor sharoitlari bilan bog‘liq xavflar

baholanadi. Natijada moliyaviy yo‘qotishlar ehtimoli kamayadi.Uchinchidan, moliyaviy nazorat investitsiya mablag‘larining belgilangan maqsadlar asosida sarflanishini doimiy kuzatib borishni nazarda tutadi. Bu jarayon moliyaviy faoliyatda shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga xizmat qiladi.Shuningdek, investitsion tahlil yordamida loyihaning daromadliligi, iqtisodiy samaradorligi va mablag‘larning qoplanish muddati aniqlanadi. Buning natijasida eng istiqbolli va samarali investitsiya loyihalarini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Yana bir muhim yo‘nalish — kapitalni boshqarish hisoblanadi. Bunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari to‘g‘ri tanlanadi va kapital tarkibi maqbul shakllantiriladi. Bu esa korxona hamda mamlakat miqyosida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.



Ushbu taqsimotdan ko‘rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi sanoat va energetika sohalariga yo‘naltirilmoqda. Loyihalarning kutilayotgan daromadliligini taqqoslash natijasida IT yo‘nalishi 8 foiz bilan qolgan sohalardan kam ko`rsatkichga ega. Sanoat loyihalarida bu ko‘rsatkich 30 foiz, energetikada 20 foiz, transportda 15 foiz va qishloq xo‘jaligida 12 foizni tashkil etadi. Bu tarmoqlarning rivojlanishi ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Transport va qurilish sohalariga investitsiya kiritilishi esa infratuzilmani yaxshilash va yangi loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari sohasining ulushi nisbatan kichik bo‘lsa-da, uning rivojlanishi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotning raqamlashtirilishida muhim ahamiyatga ega

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rganilgan ma’lumotlar xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib borayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, 2021-yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 101,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 433,9 trln so‘mga yetgan. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tahlili xorijiy investitsiyalar va kreditlarning ulushi yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat mamlakat iqtisodiyotida xorijiy kapitalning ahamiyati katta ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, investitsiyalarni faqat xorijiy manbalar hisobidan moliyalashtirishga tayanib qolmasdan, ichki moliyaviy imkoniyatlardan ham samarali foydalanish zarur. Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha tuzilgan shartli taqsimotda sanoat 30 foiz, energetika 20 foiz ulush bilan yetakchi o‘rinlarni

egalladi. Transport va qurilish tarmoqlarining har biri 15 foizni, qishloq xo‘jaligi 12 foizni, axborot texnologiyalari esa 8 foizni tashkil etdi. Bu taqsimot investitsiyalarni turli sohalarga yo‘naltirish, ayniqsa, istiqbolli va zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar samaradorligi nafaqat jalb qilingan mablag‘lar hajmiga, balki ularni to‘g‘ri rejalashtirish, oqilona taqsimlash, moliyaviy risklarni boshqarish va doimiy nazorat qilishga ham bog‘liq. Demak, moliyaviy boshqaruv xorijiy investitsiyalardan yuqori iqtisodiy samara olishning muhim omillaridan biridir.

Takliflar

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Investitsion muhitni yanada yaxshilash. Xorijiy investorlar uchun qonunchilik barqarorligini ta’minlash, ortiqcha ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish va investitsiya loyihalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini soddalashtirish lozim.
2. Ichki moliyaviy manbalarni rivojlantirish. Investitsiyalarni moliyalashtirishda faqat xorijiy kapitalga tayanib qolmasdan, mahalliy korxonalar, tijorat banklari va xususiy investorlarning mablag‘laridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kerak.
3. Investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida muvozanatli taqsimlash. Sanoat va energetika bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi, transport hamda axborot texnologiyalari sohalariga ham ko‘proq investitsiyalar jalb qilish zarur. Bu iqtisodiyotning bir nechta tarmoqqa qaram bo‘lib qolishining oldini oladi.
4. Moliyaviy risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish. Valyuta kursi, foiz stavkalari va bozor narxlaridagi o‘zgarishlarni oldindan baholash orqali investitsiya loyihalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish lozim.
5. Investitsiya loyihalari ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish. Jalb qilingan mablag‘larning maqsadli sarflanishini muntazam nazorat qilish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish va mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholab borish kerak.
6. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash. Xorijiy investorlarni raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya va zamonaviy ishlab chiqarish loyihalariga jalb qilish orqali mamlakatning texnologik salohiyatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: Moliya, 2003.
2. G‘aybullayev O. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – 1-jild, 9-son.
3. Dunning J.H. The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions. Journal of International Business Studies. – 1988.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti: www.stat.uz